

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

ARTISTIC EXPRESSION OF NATURE IMAGES IN THE WORKS OF HAMID OLIMJON

Dilfuza A. Khajiyeva*Acting Professor**Department of Uzbek Language and Literature**Urganch Pedagogical Institute**Urgench, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Hamid Olimjon, symbols of nature, metaphor, irony, lyrical hero, poetry, Uzbek literature.

Received: 20.01.26**Accepted:** 21.01.26**Published:** 22.01.26

Abstract: The works of Hamid Olimjon explore artistic and symbolic images of nature. The article examines how the poet uses natural phenomena such as wind, snow, and clouds to express the inner world of the lyrical hero, the transience of human life, a love of life, and social and moral content. A poet beloved by the people, he occupies a unique place in Uzbek poetry and represents a source of poetic creativity worthy of scholarly interest.

HAMID OLIMJON IJODIDA TABIAT OBRAZLARINING BADIY IFODASI

Dilfuza A. Xajiyeva*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi, professor v.b**Urganch pedagogika instituti*adambayevna81@gmail.com*Urganch, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Hamid Olimjon, tabiat ramzlari, metafora, istiora, lirik qahramon, she'riyat, o'zbek adabiyoti.

Annotatsiya: Hamid Olimjon ijodida tabiat ramzlarini badiiy va ramziy jihatdan o'rganishdir. Shoirning shamol, qor, bulut kabi tabiiy hodisalarni lirik qahramon ruhiyati, inson umrining o'tkinchiligi, hayotsevarlik va ijtimoiy-ma'naviy mazmunni ifodalash vositasi sifatida ishlatishi tahlil qilindi. Xalqimiz sevgan ijodkor nafaqat o'zbek she'riyatida betakror o'rin tutadi, balki qayta dunyoga kelmas she'riyat manbai sifatida ilmiy qiziqishga loyiqdir.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ ПРИРОДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ХАМИДА АЛИМДЖАНА

Дилфуза А. Хаджиева

и.о. профессора

Кафедра узбекского языка и литературы

Ургенчский педагогический институт

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хамид Олимджон, символы природы, метафора, ирония, лирический герой, поэзия, узбекская литература.

Аннотация: В творчестве Хамида Олимджона исследуются художественные и символические образы природы. Рассмотрено, как поэт использует такие природные явления, как ветер, снег, облака, для выражения внутреннего мира лирического героя, преходящести человеческой жизни, жизнелюбия и социально-нравственного содержания. Любимый народом автор занимает уникальное место в узбекской поэзии и представляет собой источник поэзии, заслуживающий научного интереса.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida tabiat ramzlariga oid she'rlar, ularning ramziy ma'nosi, badiiy obrazlilik darajasi, poetik xususiyatlari va ijodkorning uslubi doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. She'riyatda shamol, bulut, yomg'ir va qor kabi tabiiy tasvirlar nafaqat peyzaj lirikasini yaratadi, balki lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalaydi va turli ramziy ma'nolarni bildiradi; shuni bir butun sifatida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Inson-tabiat, navo-tabiat, she'r-tabiat - bunday juftliklarni alohida ko'rish imkonsiz. Ularni bog'laydigan kuch esa she'riyat va mohir qalam egasidir. Lirikada muhim o'rin tutgan tabiat ramzlari va ular bilan bog'liq lirik obrazlarning tasviri, kelib chiqishi, o'ziga xosligi hamda timsoliy ma'nolari ilmiy-nazariy jihatdan alohida e'tibor bilan o'rganilmoqda.

Adabiyotlar sharxi. Hamid Olimjon ijodida tabiat ramzlarini o'rganish jarayonida keng adabiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Avvalo, o'zbek adabiyotshunosligida shoirning ijodiy uslubi, tabiat tasvirlarining badiiy va ramziy funksiyasi, shuningdek, lirik qahramon ruhiyatini aks ettirish borasidagi izlanishlar asosiy nazariy manba sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda I. Haqqulov, Mirtemir, X. Yo'ldoshev va boshqa olimlarning tabiat ramzlariga bag'ishlangan asarlari o'rganildi, bu orqali Hamid Olimjon ijodidagi metafora, istiora va timsollarning badiiy va falsafiy ahamiyati aniqlash imkoniyati yaratildi. Tahlil metodologiyasi sifatida bir necha ilmiy yondashuvlar qo'llanildi.

Birinchidan, matnni tahlil qilish yordamida she'riy parchalar o'zining obrazlilik va ramziy ma'nosi jihatdan chuqur o'rganildi. Bu usul shoirning tabiatni badiiy tasvirlashdagi betakror uslubi, qor, shamol, bulut kabi hodisalar orqali lirik qahramon kayfiyatini qanday ifodalashini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, ramziy va poetik tahlil orqali shoirning tabiat hodisalarini inson ruhiyati bilan uyg'unlashtirish usuli o'rganildi, bunda shamol inson umrining tez o'tkinchiligi, qor hayotiy boylik va hosil poydevori sifatida, bulut esa kecha va bugunni bog'lovchi rishta sifatida talqin qilindi.

Uchinchidan, solishtirma metod qo'llanilib, Hamid Olimjon ijodi boshqa o'zbek va jahon shoirlari ijodi bilan taqqoslandi. Shu orqali shoirning tabiat va inson ruhiyatini uyg'un tasvirlashdagi betakrorligi va badiiy yondashuvining o'ziga xosligi aniqlandi. To'rtinchidan, nazariy tahlil va ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali Hamid Olimjon she'riyatidagi metafora va istioralarning falsafiy, ijtimoiy va estetik ahamiyati batafsil yoritildi. Shu bilan birga, adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari yordamida lirik qahramon kayfiyati, inson umrining o'tkinchiligi, shuningdek, tabiat va jamiyat bilan bog'liq falsafiy masalalar chuqur o'rganildi.

Zero, G'ayrat Majid "Hamid Olimjon mo'jizasi" maqolasida "Qish" sarlavhali she'ridagi qorning tasviri haqida yozadi: Agar boshlovchi shoirga she'riyatning kitoblarda yozilmagan sirlarini o'rgatmoqchi bo'lsangiz, Olimjonning mana shu she'ri eng yorqin va eng namunali misol bo'ladi. She'rda voqelik bayon qilinmaydi, badiiy so'z bilan tiniq manzaralar chiziladi. Hamid Olimjon o'lka tabiatiga taqlid qilmaydi, balki u bilan raqobatga kirishadi, tabiatni o'z ko'zi, qalbi ongi bilan tiriltiradi, uni faollashtiradi, baxt va shodlik kuyini chaldiradi, tuyg'ularni mazmunga ko'madi, hissiyotni toshirtiradi, entiktiradi. Darhaqiqat, "Manzara" she'rida hamma yoqni qoplagan, ko'zni qamashtiruvchi qor tasviri beriladi.

Muhokama va natijalar. Hamid Olimjon "Eng gullagan yoshlik chog'i..." asarida inson va tabiat, lirik qahramon va tabiat juftliklarini ayni maromida kuylagan. O'zbek she'riyatining oqsoqollaridan biri Mirtemir shunday degan: "Hamid Olimjon – nodir iste'dod egasi. Qonida, ko'z qorachig'ida, to'qson ikki tomirida tug'ma zukkolik va shoirona sajiya mujassam edi. Bilmagani oz, o'qimagani kam, chin ma'noda o'qimishli qalamkash edi". Hamid Olimjon ijodida shamol timsollari nafaqat tasviriy, balki turli ramziy ma'nolar bilan ham boyitilgan.

Tinmay esar har tomonga yel,
Qo'ymay sochar o'rikning gulin.
Daraxt shoxlarini silkitar,
Uyg'otishga boshlar uni tun...

Bu misollarda bahorda esayotgan shamol tasvirlanadi. Ko'klam tongidagi manzara jonlanib, erta shabada o'rik gullarini sochadi va daraxt shoxlarini silkitadi. Shoir shamolni yangi kun boshlanishi timsoli sifatida beradi.

Daryo to'liq shamol qo'ynida

Porillamoqdadir chiroqlar

Yorishmoqda uning aksidan

Cho'qqilar, adirlar va tog'lar

Bunda peyzaj tasviri markaziy o'rin tutadi. "Shamol qo'yni" metaforasi adabiy an'anaga ega bo'lsa, daryolarning to'liqlanishi shamol ta'siri bilan bog'liq. Shoir:

Novdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytar hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini.

Hamid Olimjon ijodida tabiat manzaralari – shamol, qor, bulut, yomg'ir kabi hodisalar – nafaqat peyzajni tasvirlash vositasi, balki lirik qahramon ruhiyati va inson hayotining falsafiy ma'nosini ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, shamol inson umrining tez o'tishini va shoshqinlikni ramziy qiladi, qor esa hayotiy boylik, hosilga poydevor va kutib olingan ne'mat sifatida namoyon bo'ladi. Bulutlar esa peyzaj manzarasini jonlantirib, kecha va bugunni bog'lovchi rishta sifatida qahramon kayfiyatini aks ettiradi.

Shoirning betakror istioralari, metaforalari va ramziy tasvirlari lirik qahramon kayfiyatini, hayotsevarlik ruhini va tabiat go'zalliklariga bo'lgan hayratini yanada chuqurlashtiradi. Shuni guvohi bo'ldikki, Hamid Olimjon ijodi boshqa qalamkashlar ijodidan farqli o'laroq, nafaqat takrorlanmas, balki o'ziga xos she'riyat manbai bo'lib, tabiat va inson hayotini uyg'un tasvirlashdagi betakror uslubi bilan ajralib turadi.

Qor tabiatda faqat tabiiy hodisa yoki qishning bezgi ziynati emas. U ona zaminning quvvatini oshiruvchi manbadir. Hamid Olimjon uni zoriqib kutilgan ne'mat sifatida tasvirleydi: dalalarga yoqqan qor ekin va hosillarga poydevor, cho'llar, tog'lar va ko'llar uchun zarur. Yangi o'zbek she'riyatida shamol turli ma'nolarni ifodalaydi. Shu bois lirik qahramonning ruhiyati, inson umrining o'tkinchiligi, oshiqning ko'tarinki kayfiyati va kuz shamoli orqali vaqtning tez o'tishi kabi mavzular aks etadi. Qor lirik qahramonning kayfiyati va tuyg'ularini: "porillagan chiroqlar", "qishning oppoq qanoti" kabi istioralar orqali ifodalaydi. Boshqa qalamkashlarning ijodida ham shunga o'xshash manzaralar uchrashi mumkin, lekin hech biri Hamid Olimjon kabi betakror bo'lolmaydi. Uning ijodi takrorlanmas va qayta dunyoga kelmas she'riyat chashmasidir.

Xulosa. Hamid Olimjon ijodida tabiat manzaralari faqat tasviriy vazifa bilan cheklanmay, inson ruhiyati va hayot falsafasini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shamol, qor, bulut kabi tabiiy hodisalar shoirning she'riyatida ramziy ma'noga ega: shamol inson umrining tez o'tkinchiligi va shoshqinlikni, qor esa hayotiy boylik, kutib olingan ne'mat va hosil poydevorini ifodalaydi. Bulutlar peyzajni jonlantirib, kechagi va bugungi kunni bog'lovchi rishta sifatida ko'rinadi. Shoir betakror istioralar, metaforalar va takroriy ifodalar orqali lirik qahramon kayfiyatini, hayotsevarlik ruhini va tabiat go'zalliklariga bo'lgan hayratni aks ettiradi. Hamid Olimjonning ijodi boshqa shoirlardan farqli o'laroq, nafaqat takrorlanmas, balki o'ziga xos, qayta dunyoga kelmas she'riyat manbai hisoblanadi. Uning tabiat va inson hayotini uyg'un tasvirlashdagi mahorati, ramziy boyligi va lirik kayfiyatni chuqur ifodalash uslubi o'zbek she'riyatida betakror o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova M. Sarhadlar osha...//Sharq yulduzi. – 1979.
2. Олимжон Ҳ. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009.
3. Азимов Сарвар. Ҳамид Олимжон адабиёти. - Тошкент.1967
4. И.Ҳаққул Навоийга қайтиш. 4 китоб –Тошкент: Tafakkur, 2021.